

**QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/29.08.2023.Qx.172.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

ZINATDINOV KAMALATDIYIN MNAJATDIN ULI

**SHO'RLANGAN YERLARDA TUPROQ UNUMDORLIGI VA G'O'ZA
HOSILDORLIGINI OSHIRUVCHI ORGANO-MINERAL
KOMPOSTLARNING SAMARADORLIGINI ASOSLASH
(Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida)**

06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

UO‘T: 633.511+631.452+631.559+631.879.42 (575-172)

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Zinatdinov Kamalatdiyin Mnajatdin uli

Sho‘rlangan yerlarda tuproq unumdorligi va g‘o‘za hosildorligini oshiruvchi organo-mineral kompostlarning samaradorligini asoslash (Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida).....3

Зинатдинов Камалатдийин Мнажатдин улы

Обоснование эффективности органоминеральных компостов, повышающих плодородие почвы и урожайность хлопчатника на засоленных почвах (в условиях Республики Каракалпакстан).....21

Zinatdinov Kamalatdiyin Mnajatdin uli

Justification of the effectiveness of organo-mineral composts in improving soil fertility and cotton yield on saline soils (under the conditions of the Republic of Karakalpakstan).....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/29.08.2023.Qx.172.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

ZINATDINOV KAMALATDIYIN MNAJATDIN ULI

**SHO‘RLANGAN YERLARDA TUPROQ UNUMDORLIGI VA G‘O‘ZA
HOSILDORLIGINI OSHIRUVCHI ORGANO-MINERAL
KOMPOSTLARNING SAMARADORLIGINI ASOSLASH
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida)**

06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Qx951 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qaxai.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismaylov Uzakbay Embergenovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rizayev Shuxrat Xudoyberdiyevich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Boltayev Saydulla Maxsudovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpog'iston dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi PhD.05/29.08.2023.Qx.172.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «__» _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230101, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Abdambetov ko'chasi, Tel.: (61) 229-27-01; faks: (61) 229-25-09; e-mail: ftga_info@edu.uz).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya bilan Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230101, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Abdambetov ko'chasi, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti bosh binosi. Tel.: (61) 229-26-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «__» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

E.Sh.Toreniyazov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, q.x.f.d., professor

A.Sayimbetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., professor

N.B.Reimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d.,
professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda kompost qo'llanilishi tuproq unumdorligini oshirish va g'o'za hosildorligini barqaror ravishda yaxshilashda muhim vositaga aylangan. Organik moddalar (kompost) tuproq organik karbonini oshirish va agregat barqarorligini yaxshilash orqali mineral o'g'itlardan foydalanish samaradorligini kuchaytiradi.¹ Ayniqsa Efiopiya va Yevropa davlatlarida organik o'g'itlash (kompostlash, yashil go'ng) asosida ishlov berilgan paxta maydonlarida hosil 25-30 % ga oshganligi qayd qilingan.² Shuning uchun, tuproq unumdorligini oshirish, agrofizikaviy va agrokimyoviy xususiyatlarini yaxshilash hamda g'o'zaning qulay o'sib-rivojlanishi va yuqori hosil olishni ta'minlash uchun organo-mineral kompostlarni qo'llash dolzarb masaladir.

Jahonning rivojlangan davlatlarining Xalqaro kompost qo'mitasi (International Compost Alliance (ICA, AQSh)), Kompost tadqiqotlari va ta'lim jamg'armasi (Compost Research & Education Foundation (CREF, AQSh) va Qattiq chiqindilar xalqaro assotsiatsiyasi (International Solid Waste Association (ISWA, Niderlandiya)) kabi tashkilotlarida tuproqning suv-fizikaviy va agrokimyoviy xossalari yaxshilash va uning unumdorligini oshirish uchun organik o'g'itlarni, mahalliy agrorudalarni, har xil chiqindilarni mineral o'g'itlarga qo'shimcha ravishda ilmiy asosda qo'llanilmoqda. Bu bo'yicha, yerlarning meliorativ holati, tuproqlarning g'ovakligi va suv o'tkazuvchanligini yaxshilash hisobiga qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasining iqlim sharoiti noqulay bo'lgan, turli sho'rlangan tuproqlari sharoitida qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda ko'plab muammolar uchraydi. Sizot suvlari minerallashuvining ortib borishi natijasida sho'rlanish jarayoni doimiy ravishda kuzatilib, bu esa o'z navbatida ekinlar hosildorligiga va tuproq unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-dekabrdagi "Paxtachilikda urug'chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-391-sonli qarorida³ hosildorligi 30 sentnerdan past bo'lgan paxta maydonlarini muntazam aniqlash hamda bosqichma-bosqich yangi va istiqbolli navlarni joylashtirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llashni joriy qilish vazifasi belgilangan. Shunga ko'ra, qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirish uchun qurg'oqchilikka, nisbatan sho'rga chidamli ekin navlarini yaratish hamda ushbu ekin turlariga mos innovatsion agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqish, tuproq unumdorligini oshiradigan organik o'g'itlardan, asosan organo-mineral kompostlarni qo'llash qishloq xo'jaligining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-martdagi PQ-179-son "Paxta maydonlarida tuproq unumdorligini va

¹ https://www.fao.org/4/s8930e/s8930e.pdf?utm_source,

² https://www.fao.org/4/y4137e/y4137e_05.htm?utm_source,

³ <https://lex.uz/uz/docs/-6694158>

hosildorlikni oshirish, sug'orishning yangi texnologiyalarini joriy etishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2022-yil 7-iyuldagi PQ-308-son "Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-iyundagi 510-son "Qishloq xo'jaligida tuproqning agrokimyoviy tahlil tizimini takomillashtirish, ekin yerlarida tuproqning unumdorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitlarida tuproq unumdorligini saqlash hamda oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil yetishtirishda har xil kompostlarni qo'llash bo'yicha S.Boltayev, B.Niyazaliyev, Sh.Xoliqulov, D.Tungushova, A.Sayimbetov, J.Abdumalikov, Sh.Mirzayevlar va xorijda L.Vozna, E.Bertran, X.Sort, M.Soliva, I.Trillas, B.Paulin, O'.Peter, I.Madeleine, S.Peter, T.Tim, V.Tomlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va ijobiy natijalarga erishilgan.

Lekin, Qoraqalpog'iston Respublikasining sho'rlangan yerlarida tuproq unumdorligi va g'o'za hosildorligini oshirishda go'ng, glaukonit va qizilmiya (ildiz) chiqindisi aralashmasidan tayyorlangan organo-mineral kompostlarning ta'sirini o'rganish bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti (oldingi ToshDAU Nukus filiali) ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №VA-FA-A-12-001 "Mahalliy agrorudalarni qo'llash asosida Qoraqalpog'istonning sho'r tuproqlarini sog'lomlashtirish texnologiyasini ishlab chiqish" (2017-2018 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'tloqi-allyuvial o'rtacha sho'rlangan tuproqlari sharoitida organo-mineral kompostlarning tuproq unumdorligi va g'o'za hosildorligiga ta'sirini ilmiy asosda ishlab chiqish hamda paxtachilik bilan shug'ullanuvchi klaster, fermer xo'jaliklariga agrotavsiyalar berish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'rtacha sho'rlangan tuproqlarda organik o'g'itlar, qizil miya chiqindisi va noan'anaviy agrorudalardan kompost tayyorlash bo'yicha maqbul me'yorlarining tuproq xossalariga ta'sirini aniqlash;

- organo-mineral kompostlarning tuproq unumdorligi, uning suv-fizik xossalariga ta'sirini o'rganish;

- qo'llanilgan organo-mineral kompostlarning tuproqning agrokimyoviy xossalariga ta'sirini aniqlash;

- o'rtacha sho'rlangan tuproqlarda organo-mineral kompostlarning g'o'zaning o'sishi va rivojlanishiga ta'sirini o'rganish;

- kompostlarning g'o'za hosildorligiga hamda paxta tolasining texnologik sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash;

- g'o'za hosildorligini va tuproq unumdorligini oshirishda organo-mineral kompostlarning iqtisodiy samaradorligini tahlil etish va ishlab chiqarishga tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasining o'tloqli-allyuvial sho'rlangan tuproqlari, kompostlar, qoramol go'ngi, qizil miya (ildizi) chiqindisi, mahalliy glaukonit agrorudasi, g'o'zaning S-4727 navi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida g'o'zada mineral o'g'itlar, shudgor ostiga organik o'g'itlar va organo-mineral kompostlarni qo'llashning tuproq unumdorligi, oziqa moddalarning o'zlashtirishi, g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi, mahsulot sifati ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usublari. Tadqiqotda dala tajribasini o'tkazish, hisoblash, ko'zatuvlar va tahlillar "Dala tajribalarini o'tkazish usublari" (Toshkent, 2007), tuproq va o'simliklardagi tahlillar "Методы агрофизических исследований почв Средней Азии" (Ташкент, 1973), "Методы агрохимических анализов почв и растений" (Ташкент, 1977) uslubiy qo'llanmalari asosida olib borilib, olingan ma'lumotlarning statistik tahlili B.A.Dospexovning "Методика полевого опыта" (Москва, 1985) bo'yicha va iqtisodiy samaradorlik N.A.Baranov usuli asosida aniqlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Qoraqalpog'iston Respublikasining o'rtacha sho'rlangan tuproqlari sharoitida qoramol go'ngi va qizilmiya (ildiz) chiqindisi bilan glaukonitni har xil nisbatlarda aralashtirilgan holda (kompost-1, compost-2, compost-3, compost-4 va compost-5) tayyorlangan va ularni g'o'zaning "S-4727" navini yetishtirishda qo'llash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

har xil tarkibdagi organo-mineral kompostlarning tuproqning agrokimyoviy, agrofizikaviy xossalariga, ya'ni tuproq unumdorligi, suv o'tkazuvchanligi va g'ovakligini yaxshilanishi hamda hajm og'irligini kamayishiga ijobiy ta'siri aniqlangan;

organo-mineral kompost (16 t qoramol go'ngi, 3 t glaukonit agrorudasi va 3 t qizilmiya chiqindisi aralashmasidan tayyorlangan) gektariga 22 tonna shudgor ostiga solish va unga qo'shimcha mineral o'g'itlarni $N_{185} P_{130} K_{90}$ kg/ga me'yorida qo'llash g'o'zaning o'sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib, o'simlik bosh poya balandligi 10,9 sm, hosil shoxlari va umumiy ko'saklar soni (1.09) 3,3 va 3,2 donaga, bitta ko'sakdagi paxta og'irligi 0,55 g.ga hamda g'o'zaning gullash va ko'saklarining ochilish dinamikasiga ijobiy ta'siri aniqlangan;

har xil tarkibli kompostlarni qo'llash orqali g'o'za hosildorligi 27,0-30,8 s/ga ni tashkil etib, ularning ta'siri va so'nggi ta'sirlaridan eng yuqori hosil kompost-4 (22 t/ga) qo'llanilganda olinib, qo'shimcha 6,1 s/ga paxta hosili olinishini ta'minlab, paxta tolasining texnologik sifat ko'rsatkichlari yaxshilanishi ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlari sharoitida tuproq unumdorligi va meliorativ holatini yaxshilash, g‘o‘zadan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda yangi turdagi organo-mineral kompostni (16 t qoramol go‘ngi+3 t glaukonit+3 t qizil miya (ildiz) chiqindisi) qo‘llash agrotexnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadbiq etilgan organo-mineral kompostni qo‘llash hisobiga tuproqdagi gumus, umumiy azot, fosfor va kaliyning miqdorlariga ijobiy ta’sir qilib, tuproqning 0-30 sm qatlamida gumus miqdori 0,127%, umumiy azot 0,016%, fosfor 0,013% va kaliy 0,130% ortganligi, nitratli azot miqdori 3,1-0,6 mg/kg, harakatchan fosfor miqdori 3,9-1,5 mg/kg va almashinuvchi kaliy miqdori 25-15 mg/kg yuqori bo‘lishini ta’minlab, tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarida g‘ovakligi 2,2 va 1,9% ga, suv o‘tkazuvchanligi kuzda 107,0 m³/ga ga ko‘p bo‘lganligi aniqlangan;

yangi turdagi organo-mineral kompostni qo‘llash hisobiga g‘o‘zaning o‘sishi, rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratilib, natijada ularning ta’siri va so‘nggi ta’sirlaridan eng yuqori 27,0-30,8 s/ga paxta hosili olinib, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi 29,1% bo‘lishini ta’minlagan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining dala va laboratoriya usullaridan foydalanilgan holda matematik-statistik ishlovdan o‘tkazilganligi, organo-mineral kompostlar tuproq unumdorligini saqlashi va o‘zgarishiga ta’siri matematik tahlillar bilan tasdiqlanganligi, tadqiqot natijalarining xalqaro va mahalliy ilmiy-tadqiqot ishlari bilan taqqoslanganligi, kuzatilgan qonuniyatlar va olingan xulosalarning mosligi, natijalarning ishlab-chiqarishga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalar ma’ruzalarda muhokama qilinganligi hamda nufuzli nashrlarda maqolalar chop etilganligi natijalarning ishonchliligini asoslaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlari sharoitida, 16 t/ga g‘o‘ng, 3 t/ga glaukonit agrorudasi va 3 t/ga qizil miya chiqindisi aralashmasidan tayyorlangan 22 t/ga organo-mineral kompostlarni shudgor ostiga solish va unga qo‘shimcha N₁₈₅ P₁₃₀ K₉₀ kg/ga me’yorlarida qo‘llash natijasida tuproqning agrokimyoviy va agrofizikaviy xossalari yaxshilanishi hisobiga g‘o‘zaning o‘sishi, rivojlanishi, hosildorligi hamda hosil sifatiga ijobiy ta’siri ilmiy asosda ishlab chiqilganligi bilan izohlangan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarining unumdorligini oshirish, g‘o‘zadan yuqori hosil yetishtirish uchun 16 t/ga g‘o‘ng, 3 t/ga glaukonit agrorudasi va 3 t/ga qizil miya chiqindisi aralashmasidan tayyorlangan 22 t/ga organo-mineral kompostlarni shudgor ostiga solish va unga qo‘shimcha N₁₈₅ P₁₃₀ K₉₀ kg/ga me’yorlarida qo‘llash tizimini ishlab chiqib, paxtachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklari hamda klasterlarda joriy etilishi hisobiga g‘o‘zadan yuqori va sifatli hosil olishga erishilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining sho‘rlangan tuproqlari sharoitida tuproq unumdorligi va g‘o‘za

hosildorligini oshirishda organo-mineral kompostlarni qo'llash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

Fermer xo'jaliklari va klasterlar uchun "Qoraqalpog'iston Respublikasida g'ozaga organo-mineral kompostlarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar" ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 24-sentabrdagi 02/013-3578-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyanoma bugungi kunda paxtachilikga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklarida tuproq unumdorligini saqlash, oshirish hamda g'ozadan yuqori hosil olishda qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda;

Go'ng, glaukonit va qizil miya chiqindisi aralashmasidan tayyorlangan 22 t/ga organo-mineral kompostni qo'llash texnologiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonlikul tumani fermer xo'jaliklarida 51,0 gektar maydonga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 24-sentabrdagi 02/013-3578-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, 16 t/ga go'ng, 3 t/ga glaukonit va 3 t/ga qizilmiya chiqindisi aralashmasidan tayyorlangan organo-mineral kompostlarni shudgor ostiga qo'llashni ishlab chiqarish sharoitida joriy etilganida nisbatan paxtadan 4,2 sentnergacha qo'shimcha hosil olinib, 12,7% rentabellikka erishilgan.

Gektariga 16 tonna go'ng, 3 tonna glaukonit va 3 tonna qizilmiya chiqindisi aralashtirilga holda tayyorlangan organo-mineral kompostni qo'llash Qoraqalpog'iston Respublikasi Qong'irot tumani fermer xo'jaliklarida 41,0 gektar maydonga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 24-sentabrdagi 02/013-3578-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, 22 t/ga me'yoridagi organo-mineral kompostlar qo'llanilganda paxtadan 4,4 sentnergacha qo'shimcha hosil olingan va rentabellik 13,5% ni tashkil qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Dala tajribalari O'zbekiston Qishloq xo'jaligida bilim va innovtsaiyalar milliy markazi va Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti tomonidan 2021-2023 yillarda o'tkazilgan aprotatsiyada ijobiy baholangan, hisobotlar institutning uslubiy va ilmiy kengashlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari 1 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy anjumanlarda ma'ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy maqolalar chop etilgan, undan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorij jurnallarida, ilmiy-amaliy anjumanlarda 5 tezis, jumladan, 1 tasi mahalliy va 4 tasi xalqaro anjumanlarda hamda 1 ta tavsiyanoma nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifasi hamda obykti va predmetlari tavsiflangan,

respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning usublari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ishlab chiqarishga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Har xil turdagi kompostlar, turli o'g'itlar, agrorudalar hamda almashlab ekish tizimlarining tuproq unumdorligi va ekinlar hosildorligiga ta'siri (Adabiyotlar sharxi)”** deb nomlangan birinchi bobida Respublikamiz va xorijda har xil turdagi kompostlarning tuproq unumdorligi va ekinlar hosildorligini oshirishdagi ahamiyati, tuproq unumdorligi va ekinlar hosildorligini oshirishda organik, mineral o'g'itlar va mahalliy agrodudalarning ahamiyati bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Tadqiqot o'tkazish sharoitlari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajriba o'tkazilgan Qoraqalpog'iston Respublikasining tuproq-iqlim sharoitlari hamda tadqiqot obyekti va o'tkazish uslublari, agroteknik tadbirlar keltirilgan. Tajriba dalasi 9 ta variant, 4 ta qaytariqdan iborat bo'lib, bitta yarusda joylashtirilgan. Har bitta delyanka-bo'lakchalari 8 qatordan, qator oralig'i 60 sm, har bir varianti (paykal)ning umumiy maydoni 240 m² (50x4,8=240 m) va hisobli qatorlar 120 m² ni tashkil qiladi. Tajriba dalasining umumiy maydoni 8640 m² ni tashkil etgan. Tajribada g'o'zaning S-4727 navi ekilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasining iqlimi keskin kontinental bo'lib, quruq mavsumiy, qishi sovuqlig'i, yozi issiqlic'i va yog'ingarchilik miqdori kam bo'lishi bilan tavsiflanadi. Tajriba o'tkazish uchun kerak bo'ladigan harorat aprel oyining o'rtalarida kuzatildi va ekin ekishda havo harorati muhimdir. Vegetatsiya davrida o'rtacha havo harorati 2021-y. 23,2; 2022-y. 23,1; 2023-y. 23,0⁰S bo'lgan.

Yog'ingarchilikning ko'p qismi qish va bahor oylariga to'g'ri keladi. Yoz oylarida esa deyarli yomg'ir bo'lmaydi. Izlanish yillarida eng ko'p yog'inlar miqdori 2021 yilda fevral, aprel va yil oxirida dekabr oyiga, 2022 yilda fevra-may oylariga va sentyabr oylariga, 2023 yilda arpel oyiga to'g'ri keldi. Vegetatsiya davrida 2022-yili yog'inlar nisbatan ko'proq bo'lgan.

Tajribalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy tuproq-iqlim sharoitida Xo'jayli tumanida olib borilgan bo'lib, yer osti sizot suvlarining sathi 1,5-2,0 metr chuqurlikda joylashgan, eskidan sug'orilib kelinayotgan o'tloqi-allyuvial tuproqlar tipiga kiradi, tuproqning mexanik tarkibi o'rta qumoq.


Tajriba dalasi tuproqlarining sho'rlanish darajasi 0-15, 15-30 sm tuproq qatlamida o'rtacha va 30-45, 45-60, 60-75, 75-90, 90-105 sm tuproq qatlamlarida kuchsiz sho'rlanish darajasida, xloridli-sulfatli sho'rlanish tipiga ega ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot ishlarida organik o'g'itlar va organo-mineral kompostlar faqat birinchi yili (uch yilda bir marotaba) kuzda shudgor ostiga hamda mineral o'g'itlar har yili ekish oldidan va vegetatsiya davrlarida qo'llanilgan.

Dissertasiyaning **“Organik o'g'itlar va organo-mineral kompostlarning tuproqning agrokimyoviy va agrofizikaviy xususiyatlariga ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobida organo-mineral kompostlarning tuproqning agrokimyoviy va agrofizikaviy xususiyatlariga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar

berilgan. G'ozaning vegetatsiya davri oxirida organik o'g'itlar va har xil tarkibdagi kompostlarning tuproqdagi gumus va oziq moddalarning umumiy miqdori aniqlanib, tajribada faqat mineral o'g'itlar N_{250} , P_{175} , K_{125} kg/ga miqdorida qo'llanilgan nazorat variantida tuproqning 0-30 sm qatlamida gumus miqdori 0,698%, umumiy azot 0,073%, umumiy fosfor 0,137% va kaliy 2,070% ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichlardan tuproqdagi gumus va oziq moddalarning umumiy miqdori bahordagiga nisbatan biroz kamayganligin ko'rish mumkin.

Mineral o'g'itlarning kamaytirilgan miqdordagi N_{185} , P_{130} , K_{90} kg/ga me'yorlari FON sifatida olinib, unga qoramol go'ngi birgalikda 10, 15 va 20 t/ga miqdorda qo'llanilgan variantlarda dastlabki holatiga nisbatan 0-30 sm qatlamda gumus miqdori 0,018-0,030-0,040% ga ortganligi aniqlangan. Qo'llanilgan qoramol go'ngi me'yorlariga bog'liq holda tuproq haydov qatlamida gumus miqdori nisbatan ortganligi kuzatilgan (1-rasm).



1-rasm. Har xil tarkibdagi kompostlarning tuproqdagi gumus miqdoriga ta'siri, tuproqning 0-30 sm qatlamida (vegetatsiya davri oxirida), %, 2021-y.

Shuningdek, har xil tarkibdagi kompostlari - FON+kompost-1 12 t/ga (6 t go'ng + 3 t glaukonit + 3 t chiqindi (qizil miya)) qo'llanilganda esa tuproqning 0-30 sm qatlamida gumus miqdori 0,775% va umumiy NPK miqdorlari 0,079-0,143-2,120% tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar FON+kompost-2 14 t/ga (6 t go'ng + 5 t glaukonit + 3 t chiqindi (qizil miya)) qo'llanilgan variantda tegishli gumus miqdori 0,773% hamda NPK miqdorlari 0,079-0,143-2,130%, FON+kompost-3 20 t/ga (16 t go'ng + 1 t glaukonit + 3 t chiqindi (qizil miya)) qo'llanilganda tegishli gumus miqdori 0,815% va NPK miqdorlari 0,085-0,148-2,180%, FON+kompost-4 22 t/ga (16 t go'ng + 3 t glaukonit + 3 t chiqindi (qizil miya)) qo'llanilgan variantda mos ravishda gumus miqdori 0,825%, NPK miqdorlari 0,089-0,150-2,200%, FON+kompost-5 24 t/ga (16 t go'ng + 5 t glaukonit + 3 t

chiqindi (qizil miya)) qo'llanilganda esa mutonosib holda 0,818% va NPK miqdorlari 0,086-0,147-2,190% ni tashkil qilganligi aniqlangan.

Aytish mumkinki, har xil tarkibdagi kompostlarning tuproqdagi gumus, umumiy azot, fosfor va kaliy miqdoriga nisbatan maqbul ta'siri kompost-4 22 t/ga qo'llanilgan variantda kuzatildgan. Bu variantda tuproqning 0-30 sm qatlamida gumus miqdori nazorat variantiga nisbatan 0,127%, umumiy azot 0,016%, fosfor 0,013% va kaliy 0,130% ortganligi, shuningdek go'ng 20 t/ga solingan variantga nisbatan esa yuqoridagiga mos holda 0,015; 0,006; 0,005; 0,040% ko'p ekanligi aniqlangan.

Gumus, azot, fosfor va kaliy miqdorlarining vegetatsiya davrida o'zgarishi qo'llanilgan mineral, organik o'g'itlar va har xil tarkibdagi kompostlarni qo'llash usullari va me'yorlariga bog'liq holda o'zgarishi aniqlangan.

Shuningdek, tajriba ishlarida qo'llanilgan organik o'g'itlar va har xil tarkibdagi kompostlarning tuproqdagi oziq moddalarning harakatchan shakliga ta'siri aniqlangan. Bunda g'o'zaning vegetatsiya davri oxirida nazorat variantida miqdorlari tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarida nitratli azot mutanosib ravishda nazorat variantida 23,9 va 12,8 mg/kg, harakatchan fosfor miqdori 29,1 va 15,7 mg/kg hamda almashiuvchi kaliy miqdori 220 va 175 mg/kg bo'lgan.

Mineral o'g'itlar kamaytirilgan miqdordagi N₁₈₅, P₁₃₀, K₉₀ kg/ga (FON) me'yorlariga qoramol go'ngi birgalikda gektariga 10, 15 va 20 tonna me'yorida qo'llanilgan variantlarda tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarida nazoratga nisbatan nitratli azot miqdori variantlar bo'yicha 2,1-2,6 va 0,2-0,5 mg/kg, harakatchan fosfor 1,5-3,1 va 0,7-1,1 mg/kg, almashiuvchi kaliy 10-16 va 3-10 mg/kg ortganligi kuzatilgan.

Kompostlar qo'llanilganda oziq moddalarning harakatchan shakllari turlicha o'zgarib, FON+kompost-1 12 t/ga qo'llanilgan variantda tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarida nitratli azot miqdori mos 26,0 va 13,0 mg/kg, harakatchan fosfor miqdori 30,8 va 16,5 mg/kg va almashinuvchi kaliy miqdori 230 va 178 mg/kg, FON+kompost-2 14 t/ga qo'llanilgan variantda tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarida nitratli azot miqdori 26,1 va 13,1 mg/kg, harakatchan fosfor miqdori 30,9 va 16,6 mg/kg va almashinuvchi kaliy miqdori 233 va 180 mg/kg, FON+kompost-3 20 t/ga qo'llanilgan variantda tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarida nitratli azot miqdori 26,7 va 13,2 mg/kg, harakatchan fosfor miqdori 32,7 va 16,9 mg/kg va almashinuvchi kaliy miqdori 235 va 185 mg/kg, FON+kompost-4 22 t/ga qo'llanilgan variantda tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarida nitratli azot miqdori 27,0 va 13,4 mg/kg, harakatchan fosfor miqdori 33,0 va 17,2 mg/kg va almashinuvchi kaliy miqdori 245 va 190 mg/kg, FON+kompost-5 24 t/ga qo'llanilganda tuproqning qatlamlariga mos nitratli azot miqdori 26,8 va 13,3 mg/kg, harakatchan fosfor miqdori 32,8 va 17,0 mg/kg va almashinuvchi kaliy miqdori 240 va 190 mg/kg ni tashkil qilgan (1-jadval).

Bunda eng yuqori ko'rsatkich kompost-4 22 t/ga qo'llanilgan 8-variantda bo'lib, nazorat variantiga nisbatan nitratli azot miqdori 3,1-0,6 mg/kg, harakatchan fosfor miqdori 3,9-1,5 mg/kg va almashinuvchi kaliy miqdori 25-15 mg/kg yuqori, go'ng 20 t/ga qo'llanilgan variantga nisbatan esa mos ravishda 0,5-0,1 mg/kg, 0,8-0,4 mg/kg va 9-5 mg/kg ko'pligi aniqlangan.

Tadqiqotning 2-3-yillarida qo'llanilgan har xil tarkibdagi kompostlarning keyingi ta'sirida ham nazoratga nisbatan yuqori natijalar saqlanib, bu esa kompostlarning tuproq unumdorligini oshirishi va saqlanib qolishi ilmiy asoslangan.

1-jadval

Organik o'g'itlar va har xil tarkibdagi kompostlarning tuproqdagi oziq moddalarning harakatchan shakliga ta'siri, vegetatsiya davri oxiri (2021 y.)

Variantlar	Tuproq qatlamlari, sm	Harakatchan miqdori, mg/kg		
		N-NO ₃	P ₂ O ₅	K ₂ O
1	0-30	23,9	29,1	220
	30-50	12,8	15,7	175
2	0-30	26,0	30,6	230
	30-50	13,0	16,4	178
3	0-30	26,3	31,8	232
	30-50	13,1	16,6	180
4	0-30	26,5	32,2	236
	30-50	13,3	16,8	185
5	0-30	26,0	30,8	230
	30-50	13,0	16,5	178
6	0-30	26,1	30,9	233
	30-50	13,1	16,6	180
7	0-30	26,7	32,7	235
	30-50	13,2	16,9	185
8	0-30	27,0	33,0	245
	30-50	13,4	17,2	190
9	0-30	26,8	32,8	240
	30-50	13,3	17,0	190


Kompostlarning qo'llashning tuproq hajm og'irligini yaxshilashdagi samaradorligi bo'yicha dala tajribasini o'tkazilgan. Tajriba davomida bahorda va kuzda tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamida kompost, organik va mineral o'g'itlarning tuproq hajm og'irligiga tasirini bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yil vegetatsiya davri boshida tuproqning 0-30 sm qatlamida tuproq hajm og'irligi variantlar bo'yicha o'rtacha 1,31-1,36 g/sm³ bo'lgan (2-rasm).

Tajribalarda vegetatsiya davri oxirida nazorat (NPK) variantida tuproqning hajm og'irligi 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda 1,41 va 1,51 g/sm³ bo'lib, bahordagi ko'rsatkichlarga nisbatan ortganligi aniqlangan.

Mineral o'g'itlar bilan organik o'g'itlar 10, 15 va 20 t/ga miqdorda qo'llanilgan 2-4 variantlarda g'o'zaning vegetatsiya davri oxirida tuproqning yuqoridagi qatlamlarida mos holda hajm og'irligi 1,37-1,38-1,39 g/sm³ va 1,47-1,49-1,50 g/sm³ tashkil qilib, 1-nazorat variantiga nisbatan 0,02-0,03-0,04 ba 0,01-0,02-0,04 g/sm³ kamroq bo'lganligi aniqlangan.

Mineral o'g'itlarga qo'shimcha kompost-1 12 t/ga va kompost-2 14 t/ga miqdorlarda qo'llanilgan 5 va 6 variantlarda vegetatsiya davri boshida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda hajm og'irligi 1,33-1,33 va 1,43-1,44 g/sm³ tashkil qilib, nazorat variantiga nisbatan 0,03-0,03 ba 0,02-0,03 g/sm³ kamroq bo'lgan. Vegetatsiya davri oxiriga kelib bu sonlar 1-variantiga nisbatan kamroq bo'lgan.

Gektariga 20 t/ga miqdorda kompost-3 qo'llanilgan 7 variantda tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda hajm og'irligi mos ravishda g'o'zaning vegetatsiya davri oxirida 1,36 va 1,47 g/sm³ tashkil qilgan hamda nazorat variantiga nisbatan mutonasib 0,05 ba 0,04 g/sm³ kamroq bo'lganligi aniqlangan.



2-rasm. Vegetatsiya davri oxirida tuproqning 0-30 sm qatlamida hajm og'irligi, g/sm³

Tajribada kompost-4 gektariga 22 tonna qo'llanilgan 8-variantda esa variantda vegetatsiya davri oxirida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda hajm og'irligi mos holda 1,35 va 1,46 g/sm³ ni tashkil qilgan va 1-nazorat variantiga nisbatan 0,06 va 0,05 g/sm³ ga va go'ng me'yorlariga solishtirganda 0,04-0,03-0,02 ba 0,04-0,03-0,02 g/sm³ ga kamroq bo'lganligi aniqlangan. Kompost-5 24 t/ga qo'llanilgan 9-variantda variantda vegetatsiya davri boshida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda hajm og'irligi mos 1,33 va 1,42 g/sm³ bo'lib, bu nazorat variantiga nisbatan 0,03 g/sm³ va 0,03 g/sm³ ga kamayganligi aniqlangan.


Izlanishlarning keying yillarida solingan kompostlarning so'ngi ta'sirida tuproqning hajm og'irligi ortishi kuzatilmadi va yuqoridagi holat saqlanib qolgan.

Tadqiqotlarda tuproq g'ovakligini ozgarishiga har xil tarkibli kompostlarning ta'siri aniqlangan. Nazorat variantida vegetatsiya davri oxirida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarida g'ovaklik 47,2 va 43,4 % ga teng bo'lgan.

Mineral o'g'itlar bilan organik o'g'itlar 10, 15 va 20 t/ga miqdorda qo'llanilgan 2-4 variantlarda vegetatsiya davri oxirida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda g'ovaklik 47,9-48,3-48,7% % va 43,8-44,2-44,9 % tashkil qilib, nazorat variantiga nisbatan 0,7-1,1-1,5 ba 0,4-0,8-1,5 % yuqori bo'lganligi aniqlangan (3-rasm).

Mineral o'g'itlarga qo'shimcha kompostlar qo'llanilgan variantlarda ularni nisbatlari va me'yorlari bog'liq holda tuproq g'ovakligiga ijobiy ta'sir qilganligi aniqlangan.

Kompost-1 12 t/ga va kompost-2 14 t/ga miqdorlarda qo'llanilgan 5 va 6 variantlarda tuproq g'ovakligi vegetatsiya davri oxirida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda 48,3-44,6 va 48,3-44,9% ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichlar nazorat variantiga nisbatan 1,1-0,4 va 1,1-0,7 %; hamda 1,1-1,2 va 1,1-1,5% yuqori bo'lgan.



3-rasm. Vegetatsiya davri oxirida tuproqning 0-30 sam qatlamida uch yildagi g'ovakligi, %

Gektariga 20 t/ga miqdorda kompost-3 qo'llanilgan 7-variantda vegetatsiya davri oxirida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda g'ovakligi mos ravishda 49,1 va 44,9 % ni tashkil qilgan holda nazorat variantiga nisbatan mutonasib 1,9 ba 1,5 % ga yuqori bo'lganligi aniqlangan.

Tajribada kompost-4 gektariga 22 tonna qo'llanilgan 8-variantda esa g'o'zani vegetatsiya davri oxirida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda g'ovakligi mos holda 49,4 va 45,3 % ni tashkil qildi va 1-nazorat variantiga nisbatan 2,2 va 1,9 % ga va go'ng 20 t/ga me'yoriga nisbatan esa 0,7 va 0,4 % ga yuqor bo'lgan. Bu esa faqat go'ng qo'llanilganga nisbatan har xil tarkibli kompostlar tayyorlab qo'llanilsa, tuproqning fizikaviy xossalari yaxshilanishidan dalolat beradi.

Shuningdek, kompost-5 24 t/ga qo'llanilganda tuproq g'ovakligi yaxshilanishiga olib kelgan. Bu variantda vegetatsiya davri oxirida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda g'ovaklik 48,7 va 44,9 % ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichlar nazorat variantidan 1,1-1,1 va 1,5-1,5% yuqori, lekin 20 t/ga go'ng qo'llanilgan variant ko'rsatkichlariga qariyb teng ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotlarning keyingi yillarida eng maqul hisoblangan kompost-4 22 t/ga (16 t go'ng + 3 t glaukonit + 3 t chiqindi (qizil miya)) qo'llanilgan 8-variantda tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda g'ovakligi nazoratga nisbatan 2,7 va 1,5

% ga ortiq bo'lganligi aniqlangan. Bu ko'rsatkichlar go'ng qo'llanilgan variantlarga nisbatan 1,2% ga yuqori bo'lgan.

Tajribada faqat mineral o'g'itlar qo'llanilgan nazorat variantida bahorda tuproqning suv o'tkazuvchanligi 6 soatda jami 651,6 m³/ga teng bo'lgan bo'lsa, kuzda tuproqning suv o'tkazuvchanligi kuzatuvlarning 6-soatida jami 501,0 m³/ga ni tashkil qilgan.

Kompostlarni qo'llashning me'yorlari oshishi bilan har xil nisbatlariga bog'liq holda tuproqning suv o'tkazuvchanligi yanada yaxshilanib borishi aniqlangan. Barcha variantlarda kuzatuvning 1-soatidan 6-soatga tomon tuproqning suv singdirish qobiliyati pasayib borishi aniqlangan. Nisbatan yuqori ko'rsatkichlar kompost-4 22 t/ga qo'llanilgan 8-variantda olinib, kuzatuvning 6-soatida nazorat variantiga nisbatan kuzda 107,0 m³/ga ga, go'ng 20 t/ga qo'llanilgan 4-varianga nisbatan esa 63,4 m³/ga ortiqcha bo'lganligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“G'o'zaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga organo-mineral kompostlarning ta'siri”** deb nomlangan to'rtinchi bobida, tajribada organo-mineral kompostlarni qo'llash natijasida tuproqning haydov qatlamidagi suv-fizik xususiyatlarining yaqshilanishi oqibatida chigitning unib chiqishi jadallashganligi aniqlangan.

Tajribada 2021 yili 1-avgustda fenologik kuzatuvlardan olingan ma'lumotlar bo'yicha faqat mineral o'g'itlar qo'llanilgan nazorat variantida g'o'zaning bosh poya balandligi 87,6 sm, hosil shoxlari soni (1.09) 11,8 dona hamda umumiy ko'saklar soni (1.09) 8,3 donani, bitta ko'sakdagi paxta og'irligi 3,2 grammni tashkil etgan (4-rasm).


Mineral o'g'itlarni kamaytirilgan me'yori bilan birgalikda go'ngni gektariga 10, 15, 20 tonna qo'llanilgan variantlarda yuqoridagilarga mos ravishda 94,2-95,0-96,1 sm ni, 9,6-10,3-10,9 donani va 3,45-3,65-3,55 grammni tashkil etgan hamda nazoratdan 6,6-7,4-8,5 sm, 1,3-2,2-2,6; 1,3-2,0-2,8 va 0,5-0,6-0,8 donaga hamda 0,30-0,45-0,52 grammga ko'proq bo'lganligini ko'rsatmoqda.

